

RAQAMLI DAVRDA BOLA HUQUQLARINING HIMOYASI. ONLAYN XAVSIZLIK VA MAXFIYLIK

O'tashova Iroda Husniddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs "A" patok talabasi.

Email: irodaotasheva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15345401>

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli makonda bola huquqlarining himoyasi milliy va xorijiy qonunchilikda qay darajada aks etganligi chuqur va atroflicha tahlil qilingan. Qolaversa, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar va ularning qay darajada samaradorligi keltirib o'tilgan. Shuningdek bola huquqlarini raqamli texnologiyalarda xavsizlik va maxfiylik choralarni ko'rish haqida davlatlarning tajribasi ham yoritib o'tilgan. Internet tizimida bola huquqlarining himoya qilish sohasida davlat uchrashi mumkin bo'lgan asosiy muammolar tahlil qilingan hamda ushbu muammolarni hal qilish yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqilgan. Milliy qonunchiligimizda ham bola huquqlarining himoyasi bo'yicha ko'rilyotgan chora-tadbirlar haqida ham fikirlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, konvensiya, raqamli davr, zamonaviy xavf va tahdidlar, monitoring, onlayn zo'ravonlik, onlayn xavsizlik va maxfiylik.

ЗАЩИТА ПРАВ ДЕТЕЙ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ. БЕЗОПАСНОСТЬ И КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ В ИНТЕРНЕТЕ

Аннотация. В данной статье глобук и всесторонние анализируется в какой степени защита прав детей в цифровом пространстве отражена в национальном и зарубежном законодательстве. Кроме того отмечены работы проводимые ветой области и их еффективностью В нем также освещается опыт стран в отношении защиты прав ребенка и мер конфиденциальности в цифровых технологиях Проанализированы и рассмотрены осовые проблемы с которыми может столкнуться государство в сфере защита прав детей в системе интернет и разработаны соответствующие предложения по решению этих проблему В нашем национальном законодательстве также высказываются мнения о мерах пинимаемых по защите прав детей.

Ключевые слова: права ребенка, ковенция, цифровой век, современные риски и угрозы, мониторинг, онлайн-насилие, онлайн-безопасность и конфиденциальность.

PROTECTION OF CHILDREN'S RIGHTS IN THE DGITAL ERA. ONLINE SAFETY AND PRIVACY

Abstarct. In this article, the extent to which the protection of children's rights in the digital space is reflected in national and foreign legislation is deeply and comprehensively analyzed. In addition, the works being carried out in this area and their effectiveness are mentioned, it also covers the experiences of countries regarding child rights protection and privacy measures in digital technologies. The main problems that the state may face in the field of protection of children's rights in the internet system have been analyzed and appropriate proposals have been developed for solving these problems. Opinions were also expressed about the measures taken in the protection of children's rights in our national legislature.

Key words: *child rights, convention, digital age, moder risks and theats, monitoring, online violence, online safety and privacy.*

Kirish.

Bola huquqlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida fikr yuritar ekanmiz, jamiyatimizning ijtimoiy ojiz qatlami hisoblanmish- bolalarga taalluqli huquq va erkinliklar, ularning qonuniy manfaatlari tarixi, inson huquqlari tarixi bilan bevosita chambarchas bog'liq ravishda o'rganish maqsadga muvofiq ekanligiga yana bir bor guvoh bo'lamiz. Chunki, bola huquqlari inson huquqlarining tarkibiy qismidir. Inson hayotini, uning katta kishi yoki bola ekanligidan qat'i nazar, o'z mohiyatini tashkil etgan huquq va erkinliklardan holi tasavvur etib bo'lmaganligi sababli, bola ham, kattalardan kam bo'lmagan darajada, o'z huquq va erkinliklari e'tirof etilishiga muhtoj bo'lib kelgan.

Shunga qaramay, bola huquqlari asrlar davomida bunday alohida e'tirofdan mahrum bo'lib kelgan. Dastavval "Bola" va "Bolalar" tushunchasiga aniqlik kiritib oladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida "Bola (bolalar) tushunchasiga O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida ilk marotaba ta'rif berilgan. Mazkur qonun qabul qilinishiga qadar "bola" yoki "bolalar" tushunchasi qo'llanilganda, uning mazmuni yoritilmagan. Bolaga berilgan ushbu ta'rif muhim. Chunki "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun va bolalarga oid boshqa qonunlar kimlarni himoya qilishga qaratilganligini aniq belgilab beradi. Bola huquqlari-bolaga nisbatan inson huquqlari toifasi, irqi, jinsi, tili, dini, kelib chiqishi, mulkiyligi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har bir bola ega bo'lishi kerak bo'lgan huquq va erkinliklardir.

Ushbu Qonun¹ da bolalarga berilgan ta'rif BMT ning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasidagi "18 yoshga to'lmagan har bir inson zoti, agar bolaga nisbatan qo'llaniladigan qonun bo'yicha u ertaroq balog'atga yetmagan bo'lsa, bola hisoblanadi", degan ta'rif mos tushadi. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaning 1-moddasida berilgan ta'rif "bolalik" qaysi paytdan, ya'ni bola tug'ilgan paytdan yoki undan avval boshlanishi to'g'risidagi masalasini yoritmaydi va shu bilan ongli ravishda normalar turfa xilligi tufayli istisnosiz barcha uchun yagona bo'lgan muammoning yechimini bermaydi. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bolalikning yoki bola hayotining boshlanishini belgilash masalasini milliy qonunchilikning ixtiyoriga qoldirgan.

Bola huquqlarini himoya qilish sivilizatsiyaning global muammolarning biri bo'lib kelmoqda. Butun dunyo mamlakatlari bolalar huquqlarini yaxshilamay turib taraqqiyotining va barqaror rivojlanishining mumkin emasligiga ishonch hosil qilmoqda. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjat-Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilinganligini ushbu muammolarni hal qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ladi. Konvensiyada bolaga ilk bor faqat maxsus himoyani talab qiluvchi obyekt sifatida emas, balki huquqlarining insonlarga taalluqli barcha berilgan to'la huquqli subyekti sifatida ham qaraladi.

¹ O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun(bundan keyingi matnlarda qisqartirilgan holda "Qonun" deb nomlanadi).

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Voyaga yetmaganlar huquqlarini xalqaro darajada tartibga solish zarurati XX asrning boshlarida paydo bo'ldi. Birinchi jahon urishining fojiali oqibatlari dunyo bo'ylab bolalar himoya qilish maqsadida 1919-yilda Millatlar Ligasi tomonidan Bolalar farvonligi bo'yicha qo'mita tashkil etishiga turtki bo'ldi. Mazkur qo'mita qarovsiz bolalar, bolalar savdosi va voyaga yetmaganlar fohishabozligi, bolalarni ekupatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan masalalar doirasida bolalar huquqlarini ko'rib chiqdi. Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishga oid ijtimoiy standartlarni ishlab chiqishda nodavlat tashkilotlar, xususan, ingliz ayol Yeglaten Jeb tomonidan ta'sis etilgan Bolalarni qutqarish xalqaro ittifoqi (The International Save the Children Union) muhim ro'l o'ynaydi².

Hammamizga ma'lumki, butun dunyo bo'ylab barcha mamlakatlarda tarqalgan COVID-19 pandemiyasi paytida barcha mamlakat fuqarolari uylarida o'tirishiga majbur bo'ladi.

Davlatlar bunga qarshi ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqdi. Bular jumlasiga raqamli transformatsiya va innovatsiyalarning keng joriy etilishi natijasida ko'plab soha va tarmoqlar hattoki, jamiyat hayoti ham raqamlashtirildi. Bu "raqamli avlod" tushunchasining kirib kelganligidan dalolat berar edi. Boshqa davlatlar qatori O'zbekistonda ham ko'plab soha va tarmoqlar raqamlashtirilib, samarali faoliyat olib bordi. Xususan, barcha hududlarda internet bilan bog'liq muammolar hal qilindi. Ko'pchilik davlat organlari offline shakldan onlayn shaklga o'tib o'zining faoliyatini amalga oshirdi. Har bir narsaning yaxshi tomoni bo'lgani kabi uning yomoni tomoni ham bor albatta. Raqamli transformatsiyalar kuchaygan hozirgi kunda internet tizimida bolalarining asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek raqamli makon bolalar hayotining aksariyat qismida, ayniqsa COVID-19 pandeyasi davrida tobora muhim ahamiyat kasb etadi, internet tizimi bolalarga bir qancha imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda turli xavflarni ham keltirib chiqarmoqda³. BMTning Bola huquqlari qo'mitasi o'zining 25-sonli Umumiy tartibidagi mulohazalarida (2021)⁴ barcha ishtirokchi davlatlar raqamli muhitda bola huquqlari hurmat qilish, himoya qilish va amalga oshirish bilan bog'liq imkoniyatlar, xavf va qiyinchiliklar nuqati nazarida Konvensiyani amalga oshirishga chaqirdi. Shu tufayli, raqamli makonda bolalar huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro standartlar va ularni implemintatsiya qilishning tashkiliy-huquqiy masalalarini takomillashtirish hamda ushbu mavzuda tadqiqot olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bola huquqlarini himoya qilishning hozirgi kundagi eng dolzarb muammolaridan biri bu internet tarmoqlaridan ya'ni raqamli makondan ularning huquqlarini himoya qilish hisoblanadi. Internet undagi ijtimoiy tarmoqlar turli imkoniyatlar bilan bir qatorda xavflarini ham olib kelmoqda.

Bolalarning internetdagi ma'lumotlaridan o'rinli foydalana olmaslik, internetdagi yaxshilik, zo'ravonlik, pornografiya va kishi ruhiyatga salbiy ta'sir qiluvchi boshqa illatlar ta'siriga tushib qoluvchi yoshlarning soni yildan yilga ortib bormoqda.

² Martison R. (1974) What works? Question and answers about prison reform. Te Public Interest 35(Spring):22

³ Internet tizimida bola huquqlari himoyasining xalqaro-huquqiy tartibga solinishi: monografiya/Mo'minov Asilbek Husniddin O'g'li. -T.: TDYU nashriyoti, 2025.-9 b

⁴ General comment 25 (2021) on children's rights in relation to the digital environment/<https://tbinternet/ohchr.org/15/treatybodyexternal/TBserch.aspx?Lang=ru&DoctypeID=11>

Yoshlarning ijtimoiylashuvining muhim vositasi sifatida ham aynan ijtimoiy tarqmoqlardan ko'p foydalanilayotganligi bolalarning axborot qabul qilish va tarqatishlari jarayonida ularning huquqlarining buzilishi xavfini kun sayin oshganligini ko'rsatadi.

Yuridik fanlar doktori Strelka Valeriya Nikolaevaning ta'kidlashicha, internetda voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish uchun xavf va tahdidlar bugungi kunda global va muhokama qilinadigan muammodir. Ko'pgina davlatlar "senzura" so'zidan qochishadi, shuning uchun uni "axborot filtirlari" iborasi bilan almashtiradilar. Bundan ma'lumotlarni filtirlash, AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Suriya, Germaniya, Fransiya va shu kabi boshqa mamlakatlar tajribasida keng uchrayib turadi. Misol uchun, Buyuk Britaniyada ta'qiqlangan kontent saytlar yaratish orqali bloklanadi, ularga tashrif buyurgandan so'ng Britaniya politsiyasi kalit so'zlarni kiritgan foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlariga kirish huquqiga ega bo'ladi. Yana boshqa misol sifatida AQSHda voyaga yetmaganlarni internetda himoya qilishda 16 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarga ota-onalari (vasiylari) roziligisiz o'z internet manzili yoki shaxsiy kanaliga ega bo'lishini ta'qiqlash orqali amalga oshiradi. Shuningdek, 2000-yil oktyabr oyida AQSH Kongressi bolalarni internetda joylashtirilgan nobaqbul materiallardan himoya qiluvchi "Internetda bolalarni himoya qilish to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Qonun kutubxonalar va maktablarga zararli kontentni ko'rishdan saqlaydigan dasturiy ta'minot filtrlarni o'rnatishni talab qiladi. Kutubxonalarga ilmiy va boshqa qonuniy maqsadlarda katta yoshdagi foydalanuvchilarning iltimosiga binoan ma'lum saytlarga kirishga ruhsat beriladi. Ushbu qonunni buzish jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuningdek, boshqa saytlarga o'tishda zararli ma'lumotlar mavjudligi haqida ogohlantirish belgisi paydo bo'ladi va voyaga yetmagan auditoriyaga havolani bosishdan oldin ota-onalari bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Ba'zi bolalar saytlarida tashqi havolalarga o'tishi mumkin emas. Ota-onalar voyaga yetmagan bolaning internetdagi faoliyatini nazorat qilish huquqiga ega va ma'muriyatdan akkauntini bloklashni ham so'rashi mumkin.

Raqamli makonda bola huquqlari bilan bog'liq xavf va tahdidlar bir necha ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Masalan, onlayn bulling va ayrim guruhlar yoki shaxslar tomonidan yaratilgan shaxsiy ma'lumotlarni nusxalash va tarqalishiga oid xavf va tahdidlar mavjud. Yana biri, kibergruming – yomon niyatdagi shaxslar tomonidan bolalar bilan do'stona munosabatlarni o'rnatish orqali ularni aldab, zararli maqsadlar yo'lida foydalanish hisoblanadi⁵. Onlayn bullingda sizga internet orqali telefonigizga yoki boshqa qurilmalaringizga sizga zid bo'lgan xabarlar, rasmlar va videolar yuboriladi. Shuningdek bundan to'rt-besh yil oldin MDHning qator mamlakatlarida o'simirlar o'rtasida o'z joniga qasd qilish hollari ko'paygani sir emas. Birgina saudiyalik 13 yoshli qiz bola ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan "Ko'k kit" o'yini ta'sirida o'zini o'ldirgan edi. Natijada, Saudiya Arabiston hukumati 47 ta video o'yinni mamlakatda taqiqlab qo'ydi. Bir nechta davlatlar qatori O'zbekistonda ham yoshgina o'simirlar ijtimoiy tarmoqlar orqali diniy ekkstramistik g'oyalar ta'siriga tushib, o'z yo'llaridan adashib qolishgan edi.

Bugungi kunda internetdagi zamonaviy xavf va tahdidlarni oldini olishga qaratilgan bir nechta xalqaro loyihalar ham mavjud.

⁵ <https://www.unicef/uzbekistan/uz/protecting-children-from-online-abuse>

Masalan, facebook raqamli platformalarda jinsiy zo'ravonlikka chek qo'yish maqsadida Yevropa ittifoqidagi deShame loyihasini Childnet, Save the children, Kek Vonal va UCLan bilan hamkorlikda moliylashtirgan. Ushbu loyiha voyaga yetmaganlar o'rtasida onlayn jinsiy zo'ravonlik haqidagi tahdidlar haqida xabar berishni ko'paytirish va bunday xatti-harakatlarning oldini olish va ularga javob berish uchun tarmoqlararo hamkorlikni amalga oshirishga qaratilgan.

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri foydalanuvchilarni ularga nobaqbul kontent haqida xabar berishga undash va ularni rag'batlantirish bo'lganligi sababli, facebook xavsizlik tizimini ham ishlab chiqdi. Masalan, "siz bu shaxsni bilasizmi?", begona shaxslardan kelib tushgan "begona xabarlar" bo'limi voyaga yetmagan bolalarga notanish bo'lgan katta yoshdagi odamlar tomonidan kelib tushgan xabarlar hamda gumon qilinganlar kabi bir qator bo'limlarni ishlab chiqdi. Misol uchun Janubiy Koreyada Cindrella lawni qabul qilgan. Bu qonun onlayn o'yinlar operatoridan yoshdan kichik bolalarni bloklashni talab qiladi. (16 yoshdan kichikinalar telefonni kechqurun ishlata olmaydi). "Selection System of Game Availibity Peroid"-O'yinlar mavjudligini tanlash tizimi joriy qilingan. Shuningdek, Norvegiyada ham 2017-yil "Police2Peer" deb nomlanuvchi milliy kiberjinoyatchilik markazi tashkil etilgan.

Bola huquqlariga oid O'zbekiston Milliy qonunchilik tizimi

Bola huquqlariga oid qonun hujjatlaridan eng muhimi bu - Konstitutsiyamiz hisoblanadi. Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning 44-moddasi ikkinchi qismida bolalar mehnatining bolaning sog'lig'iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta'lim olishiga to'sqinlik qiluvchi har qanday shakllari ta'qiqlangan⁶.

Shuningdek, konstitutsiyamizning XIV bobida ham alohida bolalar va yoshlar uchun alohida 77-, 78-,79- moddalar ajratilganligi ularga berilgan yuksak e'tirof deb aytishimiz mumkin. Bola huquqlari to'g'risidagi konvesiyaning milliy qonunchiligimizdagi implemensiaysi hisoblangan "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunga alohida to'xtalib o'tishimiz lozim. Qonun 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan. Ushbu qonunning maqsadi bola huquqlari kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi va "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlarda bolalar huquqlariga rioya etilishi va himoya qilishnini ta'minlashning mustahkam huquqiy bazasini va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratgan. O'zbekistonda raqamli davrda insonlarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan O'RQ-547-son ya'ni "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Ammo bu alohida bola huquqlarini himoya qilish uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Xalqaro darajada qabul qilingan BMTning Raqamli davrda maxfiylik huquqi bo'yicha rezolutsiyasi (2013,2014), Kiberjinoyatchilikka qarshi Budapesht konvensiyasi (2001), Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR,2018) kabi bir qancha qonun hujjatlari bo'lishiga qaramasdan bolalar huquqlarining himoyasi haligacha yetarli darajada ta'minlanib kelingan emas. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi "Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4296 -son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson

⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023-y.-25 b.

huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) o'rinbosari-Bola huquqlari bo'yicha vakil lavozimi joriy etildi. Hozirgi kunda Surayo Rahmonova ushbu lavozimda samarali faoliyat olib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 29-maydagi PQ-4736-sonli "Bola huquqlarini himoya qilishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan Bola huquqlari bo'yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari aniqlandi.

Ko'pgina xorijiy mamalatlarda Bolalar ombudsman faoliyati maxsus qonunlar bilan tartibga solinadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilishning keng institutional mexanizmi shakllangan. Ushbu mexanizmni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari, shuningdek, viloyat, tuman va shahar xalq deputatalari kengashi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, ijroya hokimiyatga qarashli bo'lgan boshqa tuzilmalar, shuningdek, sud, prokuratura organlari, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar: O'zbekiston Respublikasining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy Markazi, O'zbekiston Respublikasi huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoring instituti kabi organlar va o'zini o'zi boshqarish organlari shuningdek, nodavlat tashkilotlar tashkil etadi.

Qolaversa voyaga yetmagan ishlari bo'yicha maxsus komissiyalar ham samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Jinoyat, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya qonunchiligida, Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya normalariga muvofiq keluvchi voyaga yetmaganlarga oid odil sudlovni amalga oshirishning batafsil qoidalari o'z aksini topgan. Bolalarni nazoratsiz qoldirish, qarovsizlikni bartaraf etish maqsadida, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida 2000- yildan buyon voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000- yil 21- sentabrdai 360-sonli "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida" gi qarori ushbu komissiyalarning mas'uliyatini yanada mustahkamladi va ijtimoiy og'ir ahvoldagi oilalar bilan profilaktika ishlarini olib borishni yanada yuqori pog'onaga ko'tardi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda internet tizimida bola huquqlarini himoya qilishga oid BMT doirasida qator rezolutsiyalar qabul qilingan. Ammo mazkur rezolutsiyalar tavsiyaviy harakterga ega bo'lganligi uchun davlatlarga majburiyat yuklamaydi. Raqamli makonda bola huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida davlatlar hamkorligi asosini belgilab beradigan yagona universal konvensiyaning mavjud emasligi asosiy kamchiligimiz hisoblanadi. Shu sababli ham hozirgi vaqtda internet tizimida bola huquqlarini himoya qilishga doir xalqaro huquqiy hujjatga ehtiyoj sezilmoqda. Bola huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy hujjatlardan biri hisoblangan 1980-yilda qabul qilingan. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada davlatlar tomonidan bolalarni turli xil tahdidlardan himoya qilish zarurligi bo'yicha choralar ko'rilishi belgilangan. Virtual hayot orqali kirib kelayotgan tahdidlarning oldini olish, bolalarni raqamli makonda xavsizligini ta'minlash va ularni informatsion xurujlardan himoya qilishga oid davlatlarning majburiyatlariga oid xalqaro huquqiy normalarni aslida yo'qligini ko'rishimiz mumkin. "Bolalarni raqamli makonda axborot xurujlaridan himoya qilish to'g'risida"gi xalqaro hujjatda avvalo, bolalarning axborot savodxonligi ta'minlash, yangi texnologiyalar va yangi

acxborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanilganda bolalarning shaxsiy hayot daxlsizligiga bo'lgan huquqlarini himoya qilish, bolalarni internetdagi tahdidlardan himoya qilish vositalari, milliy darajada raqamli xavfsizlik bo'yicha axborot-ta'lim kompaniyalarni amalga oshirish, internetda bolalar qadr-qimmatini, xavfsizligini va maxfiyligini himoya qilish kabi bolalar bolalar masalalarini qamrab olish kerak. Eng asosiysi ota-onalar tomonidan farzandlariga e'tiborli bo'lishini, ularni qattiq nazorat qilinishi kerak. Bundan tashqari maktab va boshqa ta'lim muassasalarida internet savodxonlik darslari o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman, bola huquqlari, ularning kafolatlari to'g'risida xulosa qilib aytish mumkinki, aholining katta qismi yoshlarni tashkil etuvchi mamalakatimiz uchun bola huquqlarini ta'minlash va ularni himoya qilish masalasi mamlakatda demokratik, huquqiy davlat va adolat fuqarolik jamiyatini qurishning eng muhim shartlaridan biri bo'lib qolmoqda. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, "Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz-mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz ham, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham bularning barcha-barchasi, avvalombor yangi avlod, unib-o'sib kelyotgan farzandlarmiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir"⁷.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- Toshkent Yuridik adabiyotlar publish, 2023-y.-112 b.
2. Muminov A. R., Tillaboyev M.A. Bola huquqlari:Darslik/Mas'ul moharrir A.X.Saidov.-T.: "Adolat" nashriyoti,2014.-B
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (bundan keyingi matnlarda qisqartirilgan holda "Qonun" deb nomlanadi).
4. Internet tizimida bola huquqlari himoyasining xalqaro-huquqiy tartibga solishi: monografiya / Mo'minov Asilbek Husniddin O'g'li. – T.: TDYU nashriyoti, 2025.-108b.
5. Karimov.I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. -Toshkent: O'zbekiston,2001. T. 9. – 432 b.
6. General comment No. 25 (2021) on children's rights in relation to the digital environment/OHCHR
7. <https://www.sciepub.com/reference/369285>
8. <https://www.unicef.org/Uzbekistan/uz/protecting-children-from-online-abuse>

⁷ Karimov I.A Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz.T.9.-T.: -O'zbekiston,2001.-B.187.